



ISLOM HUQUQIDA MASLAHA VA UNING E'TIBORGA OLINISHI

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi islom huquqi yo'nalishi

1- kurs magistranti

2- Abdreymov Nurbol

Kalit so'zlar: *Islom huquqi, maslaha, shariat maqsadlari, maqosid ash-sharia, usulul fiqh, din himoyasi, manfaat, zaruriyot, hojiyot, tahsinot, Imom G'azzoliy, Imam Shotibiy.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada islom huquqidagi "maslaha" tushunchasining lug'aviy va istilohiy ma'nolari, uning Qur'oni karim va hadislardagi ishlatilishi hamda usulul fiqhda tutgan o'rni yoritilgan. Muallif maslahaning shariat maqsadlari (maqosid ash-sharia) bilan bog'liqligini tahlil qilib, ularni uch bosqichli rivojlanish jarayonida ko'rsatadi: zaruriyot, hojiyot va tahsinot. Shuningdek, ushbu maqolada shariatning asosiy maqsadi sifatida din, jon, aql, nasl va molni saqlash zarurligi ta'kidlanadi. Maqola Muhammad Said Ramazon Butiy kabi zamonaviy ulamolar fikrlari bilan ham boyitilgan.*

Masolih lug'atda maslaha so'zining ko'pligidir. Maslaha manfaat ma'nosidadir. Manfaati bor har qanday narsa maslaha deb nomlanishga haqlidir. Manfaat deyilganda nafaqat foyda hosil qilish va lazzatga erishmoq balki zarar va og'riqdan saqlanish, uni daf qilish tushuniladi. Ibn Forisning aytishcha **صلح** o'zagi fasod, buzilish, aynish ma'nolarining ziddida ishlatiladi¹. Bir narsadan fasodning ketishi yoki uning foydali va munosib bo'lishiga ham **صلح** o'zagidan chiqqan so'zlar ishlatiladi². Qur'oni karim va hadisi shariflarda ham bir necha o'rinlarda bu ikki ma'no bir-biriga muqobil tarzda ishlatilganini ko'ramiz.

¹ Ibn Manzur. Lisonul arab. Sod harfi.

² Javhariy. Sihoh. Sod harfi.



Jumladan, “Va er yuzida buzg‘unchilik qiladigan va (hech narsani) o‘nglay olmaydigan haddan oshuvchi kimsalarning amriga itoat etmanglar!”³ “Ularga: “Er yuzida buzg‘unchilik qilmanglar”, deyilsa, “Biz isloh qiluvchilarmiz”, deydilar”⁴ hamda “Bas, o‘lchov va tarozini komil qilib (tortingiz) va odamlarning haqlaridan urib qolmangiz hamda er (payg‘ambarlar yuborish bilan) o‘nglab qo‘yilganidan keyin, unda (kofirlik bilan) buzg‘unchilik qilib yurmanglar. Agar mo‘min bo‘lsangizlar, mana shu o‘zlaringiz uchun yaxshiroqdir”⁵ oyatlari bunga misol bo‘ladi.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam “Din g‘arib holda boshlangan va g‘ariblikka qaytadi. Mendan keyin sunnatlarimdan insonlar fasod qilganini isloh qiladigan g‘ariblarga jannat bo‘lsin,”⁶ – dedilar.

Islom ulamolari uning istilohiy ta‘rifida bir-biriga yaqin ma‘nodagi ko‘plab ta‘riflarni keltirganlar. Ularing eng qisqa va lo‘ndasi hamda ko‘proq ma‘noni qamragani Imom G‘azzoliyning ta‘rifidir. ”Maslaha manfaatni jalb qilish va zararni daf‘ qilishdir.” G‘azzoliy so‘zining davomida ushbu ta‘rifni sharhlab: “U din, jon, aql, nasl va molni saqlashdan iborat shariatning maqsadini muhofaza qilishdir. Ushbu maqsadni muhofazasiga doir har qanday narsa maslaha, uning ziddi fasoddir. - deydi⁷. Mana shu maqomda bir mulohazani aytib o‘tish lozim. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o‘zlarining “Usulul fiqh” kitoblarida - “Maslahat” arab tilidagi so‘z bo‘lib lug‘atda “manfaat”, “foйда”, “naf” ma‘nolarini anglatadi va har bir narsaning solih, ya‘ni to‘g‘ri bo‘lishi ma‘nosini bildiradi. Bizda “maslahat” so‘zi noto‘g‘ri tarzda arabcha “mashvarat”- “shuuro”(sho‘ro), ya‘ni, ko‘pchilik bo‘lib gapni pishirish ma‘nosidagi tushunchaga aylanib qolgan. Usulul fiqhda “maslahat” so‘zining o‘rniga “manfaat”ni ishlatsak,

³ Shuaro surasi. 152-oyat

⁴ Baqara surasi. 11-oyat

⁵ A‘rof surasi. 85-oyat

⁶ Sunani Termiziy. 2630-hadis.

⁷ Fazzoliy A. Al-mustasfo fi usulil fiqh. – Bayrut.: Dorul kutub al-ilmiyya, 2005. B. 147. (Bundan keyin Fazzoliy. Mustasfo.)



maqsadga bir navi muvofiq bo'lsa ham, baribir, "maslahat"ning ma'nosini to'liq ifoda eta olmaydi. Shuning uchun, asl so'zni ishlatishga o'tganimiz ma'qul⁸." Shu mulohazalardan kelib chiqib ushbu malakaviy ishda ham Usulul fiqh istilohida uchraydigan "maslaha" so'zi o'z o'rniga qarab tarjimasiz qoldirildi yoki manfaat so'ziga tarjima qilindi.

Maslahaning ta'rifidan ma'lum bo'ldiki, shariat maqsadlarini bilmay turib maslahani to'liq mohiyatini anglab bo'lmas ekan. Shuning uchun so'zimizning boshida shariat maqsadlariga oid bir necha ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Shariat maqsadlari

Shariat maqsadlari deyilganda uning barcha ahkomlarida e'tiborga olingan ma'no va maqsadlar yoki har bir hukmdagi shariat sohibi tomonidan qo'yilgan sir va hikmatlar tushuniladi. Bugungi kunga kelib shariat maqsadlari alohida fan sifatida o'rganiladi. Ulamolar shariat maqsadlari istilohi avvalda boshqa ilmlarda kuzatilgani kabi alohida ilm va kitob shaklida bo'lmaganini, keyinchalik ilmlar alohida fan sifatida kitob shaklida paydo bo'la boshlagandan buyon uch bosqichni bosib o'tganligi ta'kidlaganlar⁹.

1. Paydo bo'lish bosqichi. Bu bosqichda ulamolar Usul kitoblarida maqsadlar bobiga oid bir necha tadqiqot va masalalarni keltirib o'tganlar. Bunday tadqiqotlarni Imomul Haramayn Juvayniy "Burhon" kitobida va imom G'azzoliy "Mustasfo" va "Shifoul g'alil" nomli asarlarida keltirib o'tgan.

2. Alohida ilmga aylanish va qayd qilinish bosqichi. Bu bosqichda shariat maqsadlariga oid asos va umumiy qoidalar ro'yobga chiqarildi. Bu ishlarni Izzuddin ibn Abdussalom "Qavoidul ahkom" va "Qavoidi sug'ro" kitoblarida amalga oshirdi. Molikiy mazhabi ulamolaridan bo'lgan imom Qarofiy ibn Abdussalom yozgan narsalarni o'zining bir necha asarlarida tahrir qilib tuzatishlar kiritdi.

⁸ Muhammad Yusuf M. Usulul fiqh.– Toshkent.: Sharq, 2010. – B. 178.

⁹ Alouddin Za'tariy. Qiroa fi ilmi maqosidish sharia.– Riyod.: 1998. B. 3.



3. Pishib kamolga etish bosqichi. Bu bosqichda ushbu ilmning masalalari jam qilindi, uning bahslari tahqiq qilinib qoidalari bir asosga keltirildi. Bu bosqichda asosiy ishni imom Shotibiy “Muvofaqot” nomli asarida amalga oshirdi. Hatto ba’zilar uni shariat maqsadlari ilmining asoschisi deya tilga olganlar. Imom SHotibiyning bu ishga bel bog‘laganining sababi, u molikiy mazhabida bo‘lib, bu mazhabda maslahalarga alohida e’tibor qaratiladi.

Shariat maqsadlarning taqsimoti

Maslahalar shaxs va jamiyatga ta’siri e’tiboridan uch qismga bo‘linadi. 1. Zaruriyot. 2. Hojiyot. 3. Tahsinot.

1. Zaruriyot ya’ni zaruriy maslahalar dunyo va oxirat hayoti unga bog‘liq bo‘lgan narsalardir. Agar ular bo‘lmasa er yuzida fasod tarqab dunyo hayoti izdan chiqadi va oxiratta abadiy ne’matdan mahrum bo‘linadi. Bu besh maslahat din, jon, aql, nasl va moldir. Shunga ko‘ra qadimda ham, hozirda ham deyarli barcha Usulul-fiqh ulamolari Islom shariatining bosh maqsadi besh narsani himoya qilishdan iboratdir deya ta’kidlaydilar:

- Din muhofazasi;
- Jon muhofazasi;
- Aql muhofazasi;
- Nasl muhofazasi;
- Mol muhofazasi¹⁰.

Lekin shuni aytib o‘tish joizki, ba’zi ulamolar bu besh narsaga oltinchi narsa obruni saqlashni ham qo‘shadilar. Lekin doktor Butiy bu fikrni keltirgach, chuqur tadqiq qilinganda sha’n muhofazasi yuqoridagi besh narsaning ostiga kirishini uqtiradi.¹¹

¹⁰ .SHotibiy. Muvofaqot. Doru Ibn Affon, 1997. – J 2. – B 20. (Bundan keyin SHotibiy. Muvofaqot) Zaydon A. Al-vajiz fi usulil fiqh. Qurtuba muassasi, 1987. B.379 (Bundan keyin Zaydon.AI-vajiz). Butiy.Zavobitul maslahat. B.59. Zuhayliy. Usulul fiqh il islamiy. B.1020.

¹¹ Butiy. Zavobitul maslahat.B.121.



Shuningdek, ko‘plab Usul ulamolari bu besh narsani muhofaza qilish boshqa barcha din va millatlar tarafidan ham ittifoq qilingan maqsaddir¹², degan fikrni olg‘a sursalarda, yamanlik olim Imom Shavkoniy oldingi shariatlarda va Islomning avvalida xamr muboh bo‘lganligini dalil qilib bu fikrni inkor qiladi¹³.

Shariat ushbu narsalarni ikki jihatdan muhofaza qiladi. Birinchi jihat vujudga keltirish, paydo qilish va ikkinchi jihat saqlab qolish jihatidan.

Dinning vujudi uchun besh ruknni bajarish farz qilindi. Uni saqlab qolish uchun ham bir necha hukmlar yo‘lga qo‘yildi. SHu orqali dinning muhofazasi yo‘lga qo‘yildi.

Jon va hayot vujudga kelishi uchun tug‘ilish va nasl qoldirish sababi bo‘lgan nikoh joriy qilindi. Uni saqlab qolish uchun diya va qasos jazolari joriy etildi.

Naslga saqlash uchun birinchi jihatdan nikoh hamda hizona¹⁴ va nafaqa masalalari joriy etildi. Ikkinchi jihatdan zino harom qilindi va unga jazo ta‘yin etildi.

Alloh insonga ne‘mat qilib bergan aql muhofazasi uchun aqlni ilm va ma‘rifat bilan rivojlantirish, uning salomatligini saqlashga sabab bo‘luvchi narsalarni tanovul qilishga buyurildi. Ikkinchi jihatdan esa mast qiluvchi ichimliklar harom qilindi va unga jazo belgilandi.

Molni saqlash uchun birinchi jihatdan insonlar orasidagi turli muomalalarning asli mashru‘ bo‘ldi. Ikkinchi jihatdan o‘g‘irlik harom qilindi va unga jazo joriy qilindi.

2. Hojiyot odamlar ularga o‘zlaridagi tanglikni ketkazish uchun muhtoj bo‘ladigan maslahalardir. Bu maslahalar bo‘lmasa ham odamlarning hayoti izdan chiqmasada, ba‘zi qiyinchilik va mashaqqatga duchor bo‘lishlari mumkin. Bularga misol qilib ibodatlar bobida musofir va kasallar uchun joriy etilgan ruxsatlarni,

¹² Fazzoliy. Al-mustasfo J 1. B. 140.

¹³ SHavkoniy. Irshodul fuhul. – Bayrut.: Dorul kutub al-arabiy, 1999. B. 216. (Bundan keyin Shavkoniy. Irshodul fuhul.)

¹⁴ Haqli shaxsning bolani voyaga etkazishi. Qarang: Ibn Obidiyn. Raddul muhtor. . – Bayrut.: Darul fikr, 2000. – J. 3. – B. 555.A



odatlar bobida ov qilish va emoq, ichmoq, kiyinish hamda maskan tutishda asliy ehtiyojdan ortiq ne'matlardan huzurlanish va muomalot bobida oldi- sotdi, ijara va shirkat kabi kelishuvlar fasx va taloq kabi ishlarni keltirishimiz mumkin.

3. Tahsinot yoki kamoliyot oliyjanoblik va yaxshi odatlarni joriy qilish hamda go'zal axloqlarga ega bo'lish uchun qilinadigan ishlar (maslahalar)dir. Bular bo'lmasa ham hayot izdan chiqmaydi, odamlarga mashaqqat tug'ilmaydi. Lekin oqillar nazdida hayot dilxiralik bilan davom etadi. Ibodat bobida bularga tahorat va satri avrat masalalari, muomalot bobida najosat va zararli narsalarni sotish ta'qiqlanganligi, birodarining savdosi ustiga savdo qilish va uning sovchisi ustiga sovchi qo'yishdan qaytarilganligi, odatlar bobida eyish va ichish odoblari, isrofning haromligi, iflos va zararli narsalarning harom qilinishi, uqubatlar bobida musla¹⁵ni harom qilinishi, urushda ayollar, yosh bolalar va rohiblarni o'ldirmaslik hukmini joriy etilishi misol bo'ladi.

Yuqoridagi so'zlardan maslahaning uch darajasi borligini, ulardan birinchisini muhofaza qilish shariatning bosh maqsadi ekanligi ma'lum bo'lyapti. Biroq zamonamiz olimlaridan biri Muhammad Said Ramazon Butiy bu borada boshqacharoq yo'l tutadi. U mazkur besh narsani muhofaza qilishni shariatning maqsadi sifatida, zaruriyot, hojjiyot va tahsinotni esa ularni muhofaza qilish vositalari sifatida keltiradi va misollarni ham shu fikrga ko'ra keltirdi¹⁶.

Xulosa

Ushbu maqolada islom huquqidagi muhim tushuncha — *maslaha* (foйда, manfaat) atroflicha tahlil qilindi. Maslaha Qur'oni karim va hadislarda fosiqlik (fasod) tushunchasiga zid bo'lgan ijobiy hodisa sifatida talqin etiladi. Imom G'azzoliy va Imom Shotibiy kabi yirik mutafakkirlarning ta'riflari asosida maslahaning asosiy vazifasi — manfaat keltirish va zararlarni daf qilish ekani

¹⁵ Mayyitning burun va quloqlarini kesish. . Qarang: Ibn Obidiyn. Raddul muhtor. . – Bayrut.: Darul fikr, 2000. – J. 4. – B. 131.

¹⁶ Butiy. Zavobitul maslaha. – B 119-120



ta'kidlandi. Shuningdek, maslaha shariat maqsadlari — *maqosid ash-sharia* bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning mohiyatini tushunish shariat maqsadlarini chuqur o'rganishni talab qiladi. Shariat maqsadlari uch darajaga bo'lingani — **zaruriyot, hojjiyot va tahsinot** — asosiy ilmiy asosda bayon qilindi. Din, jon, aql, nasl va molni asrash shariatning asosiy maqsadi sifatida ilgari surildi. Bu qadriyatlar tarixan islom huquqi asosida turli hukmlar bilan himoyalangan. Maslahaning bu qadriyatlar bilan bevosita bog'liqligi, uni shariat qonunlarining asosiy poydevori sifatida qabul qilish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, maslaha islom huquqi tizimida yuksak ahamiyatga ega bo'lib, u shariat qonunlarining zamonaviy talablarga javob berishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Uning to'g'ri tushunilishi va e'tiborga olinishi bugungi kunda ham huquqiy qarorlarning adolatli va maqbul bo'lishida hal qiluvchi omillardan biridir.